

**MASOFAVIY TA'LIM TERMINOLOGIYASINI QO'LLASHDAGI
MUAMMOLAR: LINGVISTIK VA AMALIY JIHATLAR**

Xidirova Gulnoza Xalilovna

Qarshi davlat universiteti

gulnozaxidirova190@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada masofaviy ta'lim terminologiyasini qo'llash jarayonida yuzaga keladigan lingvistik va amaliy muammolar tahlil qilinadi. Tadqiqotda zamonaviy ta'lim tizimida keng qo'llanilayotgan inglizcha o'zlashma terminlarning o'zbek tiliga moslashuvi, ularning semantik aniqligi, morfologik shakllanishi hamda funksional qo'llanishi o'rganiladi. Shuningdek, terminlarning turlicha tarjima qilinishi natijasida yuzaga kelayotgan noaniqliklar, standartlashuv muammolari va ularning ta'lim jarayoniga ta'siri ilmiy asosda yoritiladi. Maqolada lingvistik yondashuv bilan bir qatorda amaliy jihatlari ham tahlil qilinib, masofaviy ta'lim platformalari, elektron resurslar va raqamli ta'lim muhitida terminlardan foydalanishdagi kamchiliklar misollar orqali ko'rsatib beriladi. Tadqiqot natijasida terminologiyani tizimlashtirish, yagona me'yorlarni ishlab chiqish va milliy til imkoniyatlaridan samarali foydalanish zarurligi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar masofaviy ta'lim, terminologiya, lingvistik tahlil, amaliy muammolar, termin o'zlashuvi, standartlashuv, ta'lim texnologiyalari, LMS, raqamli ta'lim muhiti

Kirish

Bugungi globallashuv va raqamli texnologiyalar jadal rivojlanayotgan sharoitda ta'lim tizimi ham tubdan o'zgarib bormoqda. Xususan, masofaviy ta'lim shaklining keng qo'llanilishi natijasida yangi tushunchalar, atamalar va

terminologik birliklar faol ravishda tilga kirib kelmoqda. Bu jarayon, avvalo, ingliz tilining xalqaro ilm-fan va texnologiya tili sifatidagi ustunligi bilan bog‘liq bo‘lib, ko‘plab terminlarning o‘zbek tiliga to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bilvosita o‘zlashuviga sabab bo‘lmoqda. Masofaviy ta‘lim terminologiyasining shakllanishi va rivojlanishi o‘ziga xos lingvistik va amaliy muammolarni yuzaga keltirmoqda. Jumladan, terminlarning turlicha tarjima qilinishi, semantik noaniqliklar, morfologik moslashuvdagi tafovutlar hamda ularning qo‘llanishida yagona me‘yorning mavjud emasligi ilmiy va amaliy jihatdan muhim masala hisoblanadi. Ayniqsa, bir terminning bir necha variantda qo‘llanishi (masalan, *Learning Management System* uchun turli tarjimalar) ilmiy matnlarda tushunmovchiliklarga olib kelishi mumkin. Shuningdek, zamonaviy ta‘lim platformalari, elektron resurslar va raqamli muhitda terminlardan foydalanish amaliy jihatdan ham muayyan qiyinchiliklarni yuzaga keltirmoqda. Bu esa terminologiyani tizimlashtirish, standartlashtirish hamda milliy til me‘yorlariga mos holda shakllantirish zaruratini kuchaytiradi. Mazkur tadqiqotning maqsadi masofaviy ta‘lim terminologiyasini qo‘llashdagi lingvistik va amaliy muammolarni aniqlash, ularni ilmiy tahlil qilish hamda samarali yechimlar ishlab chiqishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun terminlarning semantik, morfologik va funksional jihatlari kompleks yondashuv asosida o‘rganiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Literature Review

Masofaviy ta‘lim terminologiyasi va uning lingvistik xususiyatlari so‘nggi yillarda ko‘plab xorijiy va mahalliy tadqiqotchilar tomonidan o‘rganib kelinmoqda. Ushbu yo‘nalishda olib borilgan ilmiy izlanishlar asosan ikki asosiy yo‘nalishga – terminologiya nazariyasi hamda raqamli ta‘lim muhitida terminlarning qo‘llanishiga qaratilgan.

Terminologiya nazariyasi asoslari dastlab **E.Wüster** tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, u terminlarning aniq, bir ma‘noli va standartlashgan bo‘lishi

zarurligini ta'kidlaydi. Uning yondashuvida terminlar tizimli va normativ birlik sifatida qaraladi. Keyinchalik ushbu an'naviy qarashlar zamonaviy yondashuvlar bilan boyitildi. E. Wüster "terminologiyaning asosiy vazifasi sifatida tushunchalarning aniq, bir ma'noli va standart shaklda ifodalanishini"¹ ta'kidlaydi. Bu yondashuv masofaviy ta'lim terminlarini tartibga solishda muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, **R. Temmerman** tomonidan ilgari surilgan sotsio-kognitiv yondashuv terminlarning qat'iy emasligi, balki kontekstga bog'liq holda shakllanishini asoslab berdi. Bu esa terminologiyani real kommunikativ jarayon bilan bog'liq holda o'rganish zaruratini ko'rsatadi. R. Temmerman terminlarni qat'iy va o'zgarmas birliklar emas, balki kontekstga qarab rivojlanib boradigan dinamik birliklar sifatida talqin qiladi. Bu yondashuv zamonaviy terminologiyada, ayniqsa masofaviy ta'lim sohasida keng qo'llaniladi².

Shuningdek, **M.T.Cabré** tomonidan ishlab chiqilgan kommunikativ terminologiya nazariyasi terminlarni til, bilim va kommunikatsiya o'zaro bog'liqligida tahlil qilishni taklif etadi. Ushbu yondashuv terminlarning faqatgina nomlash vositasi emas, balki bilimni uzatish va tushunishni ta'minlovchi birlik sifatidagi ahamiyatini ochib beradi.

Mahalliy tadqiqotlarda esa masofaviy ta'lim terminlarining o'zbek tiliga o'zlashuvi, ularning leksik-semantik xususiyatlari hamda standartlashuv muammolari alohida e'tibor markazida turadi. O'zbek tilshunosligida terminlarning o'zlashtirilishi, milliyashtirilishi va me'yorlashtirilishi masalalari til taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liq holda o'rganilmoqda. Ayniqsa, ingliz tilidan kirib kelayotgan terminlarning fonetik, grafik va semantik moslashuvi muhim ilmiy muammo sifatida qaralmoqda.

¹ Wüster E. Einführung in die Allgemeine Terminologielehre und terminologische Lexikographie. – Bonn: Romanistischer Verlag, 1991. – 320 p.

² Temmerman R. Towards New Ways of Terminology Description: The Sociocognitive Approach. – Amsterdam: John Benjamins Publishing Company, 2000. – 258 p.

N.Ismailovdan “Masofaviy ta’lim zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan holda ta’lim jarayonini tashkil etishning muhim shakli bo‘lib, u ta’lim oluvchining mustaqil bilim olish imkoniyatlarini kengaytiradi”³

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, mavjud ilmiy adabiyotlarda masofaviy ta’lim terminologiyasining nazariy asoslari yetarlicha yoritilgan bo‘lsa-da, ularning amaliy qo‘llanishidagi muammolar, xususan, tarjima variantlarining xilma-xilligi, terminlarning noto‘g‘ri yoki turlicha talqin qilinishi hamda yagona standartning yetishmasligi hali ham dolzarb masala bo‘lib qolmoqda. Shu bois mazkur tadqiqot aynan ushbu bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

Tadqiqot usullari. Methodology.

Masofaviy ta’lim terminologiyasining shakllanishida eng muhim masalalardan biri – terminlarning semantik aniqligi va ularning to‘g‘ri tarjima qilinishidir. Ingliz tilidan o‘zlashgan ko‘plab terminlar o‘zbek tilida turli variantlarda qo‘llanilib, bu holat ilmiy matnlarda noaniqliklarni yuzaga keltiradi.

Masalan, *Learning Management System (LMS)* termini turlicha tarjima qilinadi: *ta’limni boshqarish tizimi*, *o‘quv jarayonini boshqarish tizimi*, *o‘qitishni boshqarish tizimi*. Ushbu variantlar ma’no jihatidan yaqin bo‘lsa-da, ularning semantik qamrovi farqlanadi. Birinchi variant umumiy ta’lim tizimini anglatishi mumkin bo‘lsa, ikkinchisi aynan o‘quv jarayoniga urg‘u beradi.

Shuningdek, *course*, *curriculum*, *program* kabi terminlarning noto‘g‘ri tarjima qilinishi ham keng tarqalgan. Masalan, *course* ko‘pincha “kurs” sifatida tarjima qilinsa-da, ba’zi hollarda u “fan” yoki “modul” ma’nosini anglatadi. Bu

³ Ismailov N., Xusanov Q. Masofaviy ta’lim asoslari. – Toshkent: Fan nashriyoti, 2020. – 45-

ilmiy –amaliy anjuman

esa terminlarning kontekstga bog‘liq holda talqin qilinishi zarurligini ko‘rsatadi.

Demak, semantik noaniqliklarni bartaraf etish uchun terminlarni kontekst asosida tanlash va ularning yagona ilmiy izohini ishlab chiqish zarur.

Terminlarning morfologik va ortografik moslashuvi

Masofaviy ta‘lim terminlarining o‘zbek tiliga o‘zlashuvi jarayonida morfologik va ortografik muammolar ham yuzaga keladi. Ko‘plab terminlar asl shaklida (masalan, *platforma, modul, kredit*) qabul qilinayotgan bo‘lsa, ayrimlari fonetik va grafik jihatdan moslashtirilmoqda.

Ayrim hollarda esa terminlar aralash shaklda qo‘llanadi: *onlayn ta‘lim, e-learning, zoom orqali dars, Google Classroom platformasi*. Bunday holatlar til tizimida gibrid birliklarning paydo bo‘lishiga olib keladi.

Bundan tashqari, qisqartma terminlar (*LMS, MOOC, CMS*) keng qo‘llanilib, ularning to‘liq ochilishi har doim ham berilmaydi. Bu esa ayniqsa yangi foydalanuvchilar uchun tushunishda qiyinchilik tug‘diradi.

Shu sababli, terminlarni o‘zlashtirishda fonetik moslashuv, grafik birlik va imlo me‘yorlariga rioya qilish muhim hisoblanadi.

Terminlarning amaliy qo‘llanishidagi muammolar

Masofaviy ta‘lim terminologiyasining amaliy qo‘llanishi ham bir qator muammolar bilan xarakterlanadi. Xususan, raqamli platformalarda terminlarning noto‘g‘ri yoki turlicha ishlatilishi ta‘lim jarayonining samaradorligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Masalan, bir platformada *assignment* “topshiriq” deb berilsa, boshqasida “vazifa” yoki “uy ishi” deb tarjima qilinadi. Bu esa talabalarda tushunmovchilikni yuzaga keltiradi.

ilmiy –amaliy anjuman

Shuningdek, o‘qituvchilar va talabalar tomonidan terminlardan foydalanish darajasi ham bir xil emas. Ayrim foydalanuvchilar inglizcha variantni ishlatib, boshqalari o‘zbekcha muqobilini qo‘llaydi. Natijada kommunikativ nomuvofiqlik yuzaga keladi.

Amaliy muammolardan yana biri – terminlarning ortiqcha o‘zlashuvi va milliy muqobillarning yetarli darajada ishlab chiqilmaganidir. Bu holat tilning ichki imkoniyatlaridan to‘liq foydalanilmayotganini ko‘rsatadi.

Inglizcha termin	O‘zbekcha variantlar	Muammo turi
Learning	ta’limni boshqarish tizimi / o‘quv	Semantik noaniqlik
Management System	jarayonini boshqarish tizimi	
Course	kurs / fan / modul	Kontekstual tafovut
Assignment	topshiriq / vazifa	Bir xillik yo‘qligi
Platform	platforma	Muammo kam
MOOC	ommaviy ochiq onlayn kurs	Qisqartma tushunarsizligi

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, masofaviy ta’lim terminologiyasini qo‘llashda uch asosiy muammo mavjud: semantik noaniqlik, morfologik nomuvofiqlik va amaliy qo‘llanishdagi tartibsizlik. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun terminlarni standartlashtirish, yagona izohli lug‘atlar yaratish hamda milliy til me’yorlariga asoslangan holda terminlarni tanlash zarur.

Tahlillar va natijalar. Results and Analysis

Mazkur tadqiqot doirasida masofaviy ta’lim terminologiyasining lingvistik va amaliy jihatlari kompleks tarzda tahlil qilindi. O‘rganishlar natijasida ushbu soha terminologiyasi hali to‘liq shakllanmagan, dinamik rivojlanish bosqichida ekanligi aniqlandi. Xususan, ingliz tilidan o‘zlashgan terminlar o‘zbek tilida turli yo‘llar orqali qo‘llanilmoqda: ayrimlari to‘g‘ridan-

ilmiy –amaliy anjuman

to'g'ri o'zlashgan holda (platforma, modul), ayrimlari tarjima yo'li bilan (ta'limni boshqarish tizimi), boshqalari esa aralash shaklda (onlayn ta'lim, e-learning) ishlatilmoqda. Biroq ushbu jarayon yagona me'yor asosida amalga oshmayotgani sababli terminlarning turli variantlari yuzaga kelib, semantik noaniqlikni kuchaytirmoqda. Shuningdek, terminlarning morfologik va ortografik moslashuvida ham nomuvofiqliklar kuzatiladi. Ba'zi terminlar o'zbek tilining fonetik va grammatik me'yorlariga moslashtirilgan bo'lsa, boshqalari asl shaklida qo'llanmoqda. Bu esa terminologik tizimning hali barqaror shakllanmaganini ko'rsatadi. Ayniqsa, bir terminning bir nechta muqobil variantlarda qo'llanishi ilmiy matnlarda aniqlik va izchillikni pasaytiradi.

Tahlillar ham masofaviy ta'lim muhitida terminlardan foydalanishda muammolar mavjudligini ko'rsatdi. Xususan, turli platformalarda bir xil termin turlicha tarjima qilinadi. Masalan, "assignment" termini ba'zan "topshiriq", ba'zan "vazifa" sifatida qo'llanadi. Bu esa foydalanuvchilar, ayniqsa talabalar uchun tushunmovchiliklarni keltirib chiqaradi. Shu bilan birga, inglizcha terminlarning bevosita qo'llanilishi keng tarqalgan bo'lib, bu milliy til imkoniyatlaridan yetarli darajada foydalanilmayotganini anglatadi. Qisqartma terminlarning izohsiz ishlatilishi ham ularni o'zlashtirishni qiyinlashtiradi.

Tahlillar natijasida shuni ta'kidlash mumkinki, masofaviy ta'lim terminologiyasi hali to'liq standartlashmagan tizim hisoblanadi. Terminlarning ko'p variantli qo'llanishi semantik noaniqlikka olib kelmoqda, morfologik va ortografik moslashuvda esa yagona yondashuv yetishmaydi. Amaliy qo'llanishda terminlardan foydalanish bir xil emasligi ham muhim muammolardan biridir. Shu bilan birga, inglizcha terminlarning ustunligi milliy termin yaratish jarayonini sekinlashtirmoqda. Mazkur tadqiqot natijasida masofaviy ta'lim terminologiyasining lingvistik va amaliy muammolari tizimli ravishda tahlil qilinib, terminlarning semantik, morfologik va funksional

ilmiy –amaliy anjuman

xususiyatlari aniqlashtirildi. Shuningdek, terminlarni standartlashtirish zarurligi ilmiy asoslandi hamda o‘zbek tilida muqobil terminlarni yaratish va ularni me‘yorlashtirish bo‘yicha muhim xulosalar ishlab chiqildi. Umuman olganda, masofaviy ta‘lim terminologiyasini samarali qo‘llash uchun lingvistik aniqlik, amaliy birxillik va terminologik standartlashuvni ta‘minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu yo‘nalishda olib boriladigan izchil ilmiy tadqiqotlar nafaqat tilshunoslik rivojiga, balki zamonaviy ta‘lim tizimining samaradorligini oshirishga ham xizmat qiladi.

Xulosa. Conclusion

Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, masofaviy ta‘lim terminologiyasi zamonaviy ta‘lim tizimining ajralmas qismi sifatida shakllanib borayotgan dinamik tizim hisoblanadi. Ushbu tizimning rivojlanishi, asosan, ingliz tilidan kirib kelayotgan terminlar bilan bog‘liq bo‘lib, ularning o‘zbek tiliga moslashuvi jarayonida bir qator lingvistik va amaliy muammolar yuzaga kelmoqda. Tahlillar natijasida terminlarning turlicha tarjima qilinishi, semantik noaniqliklar, morfologik va ortografik moslashuvdagi tafovutlar hamda amaliy qo‘llanishdagi bir xillikning yetishmasligi asosiy muammolar sifatida aniqlandi. Shuningdek, qisqartma terminlarning izohsiz qo‘llanishi va inglizcha birliklarning ustunligi milliy termin yaratish jarayonini murakkablashtirmoqda. Tadqiqot davomida masofaviy ta‘lim terminologiyasining semantik, morfologik va funksional xususiyatlari tahlil qilinib, ularni standartlashtirish zarurligi ilmiy jihatdan asoslab berildi. Shu asosda terminlarni yagona me‘yor asosida qo‘llash, izohli lug‘atlar yaratish va milliy til imkoniyatlaridan samarali foydalanish muhim ekanligi xulosa qilindi.

Umuman olganda, masofaviy ta‘lim terminologiyasini tartibga solish va takomillashtirish nafaqat tilshunoslik, balki ta‘lim tizimi samaradorligini oshirish uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ally M. Foundations of Educational Theory for Online Learning. – Athabasca: Athabasca University Press, 2008. – 350 p.
2. Anderson T. The Theory and Practice of Online Learning. – Athabasca: Athabasca University Press, 2008. – 472 p.
3. Cabré M.T. Terminology: Theory, Methods and Applications. – Amsterdam: John Benjamins Publishing Company, 1999. – 248 p.
4. Clark R.C., Mayer R.E. E-Learning and the Science of Instruction. – San Francisco: Pfeiffer, 2016. – 528 p.
5. Ismailov N., Xusanov Q. Masofaviy ta'lim asoslari. – Toshkent: Fan nashriyoti, 2020. – 256 b.
6. Khalil M.K., Ebner M. MOOCs: Completion Rates and Possible Methods to Improve Retention. – Graz: Graz University of Technology, 2014. – 10 p.
7. Littlejohn A., Pegler C. Preparing for Blended E-Learning. – London: Routledge, 2007. – 224 p.
8. Rosenberg M.J. E-Learning: Strategies for Delivering Knowledge in the Digital Age. – New York: McGraw-Hill, 2001. – 344 p.
9. Temmerman R. Towards New Ways of Terminology Description: The Sociocognitive Approach. – Amsterdam: John Benjamins Publishing Company, 2000. – 258 p.
10. Wüster E. Einführung in die Allgemeine Terminologielehre und terminologische Lexikographie. – Bonn: Romanistischer Verlag, 1991. – 320 p.